



## TERM OF PEACE: AS A POLITICAL CONSCIOUSNESS

Tog'ayeva.D.M

Xalqaro siyosatchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5502005>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> September 2021

Accepted: 05<sup>th</sup> September 2021

Online: 10<sup>th</sup> September 2021

### KEY WORDS

Peace, international law, freedom, care, War, religion, Islam, armed conflict, covenant, covenant

### ABSTRACT

*The emergence of the term peace and the stages of its formation to this day of the development of international peace concepts are reflected. The importance of the concept of peace in the process of war and the importance of the concept of peace in religious views were studied.*

## TINCHLIK ATAMASI : SIYOSIY ONG SIFATIDA

Tog'ayeva.D.M

Xalqaro siyosatchi

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-sentabr 2021

Ma'qullandi: 05- sentabr 2021

Chop etildi: 10- sentabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

Tinchlik, xalqaro huquq, erkinlik, g'amxo'rlik, urush, din, islom, qurolli to'qnashuv, ahdnoma, ahdlashuv

### ANNOTATSIYA

*Tinchlik atamasining paydo bo'lishi va bugungi kungacha shakillanish bosqichlar va xalqaro tinchlik tushunchalarining taraqqiyot jaratonlari o'z aksini topgan. Shuningdik tinchlik tushunchasi urush bo'lgan jarayonda qay darajada muhimligi va diniy qarashlarda tinchlik tushunchasining muhimligi o'rganib chiqildi.*

Tinchliklik – xalqlar va davlatlar o'rtasida zo'rlik ishlatmasdan tashqi siyosat olib borishga, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishga va odatda, xalqaro shartnomalarga mustahkamlab

qo'yilgan majburiyatlarga rioya etishga asoslanadigan munosabatlar: davlatlar o'rtasida uyushtirilgan qurolli kurash (ya'ni urush)ning yo'qligidir. Tinchlik bu insonning erkinligi, baxt-saodati, teng



huqukliligi to'g'risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shartsharoitlar yaratib berish haqida hamda g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Unga ko'ra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, xalq manfaatlari, mamlakat kishilari haqida g'amxo'rlik insonparvarlikning asosiy masalasidir. Tinchlik g'oyalari uzoq tarixga ega. Ular baxt-saodat va adolatga erishish orzulari tarzida qadimdan xalq og'zaki ijodida, adabiyotda, diniy va falsafiy ta'limotlarda o'z aksini topib kelmoqda. Sharq falsafasi va ijtimoiy qarashlarda tinchlik g'oyalari azaldan keng tarqalgan bo'lib, b ko'p ming yillik tarix bilan chambarchas bog'liq. Osiyolik mutafakkirlardan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bahovuddin Naqishbandiy, Najmiddin Kubro va boshqash tarixiy shaxslarning asarlarida va g'oyalarida tinchlik va inson erkinligi, uning qadr-qimmati g'oyalari olg'a surildi.

Ma'lumki urush harakatlari paytidagi o'zaro munosabatlarni belgilash xalqaro huquq fanining paydo bo'lishi uchun xizmat qilgan asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Urush qonuni va tinchlik qonuni mavzusida birinchi fundamental ish ya'ni, xalqaro huquq haqidagi ishlar o'n yettinchi asrlarda paydo bo'lgan.<sup>[1]</sup> O'rta asrlarda huquqshinoslar tomonidan "Qurolli to'qnashuvlar" davrida jangchining erkin harakatlanishini cheklash to'g'risida juda kam mulohazalar o'tkazilar edi.

"Xalqaro tinchlik huquqi" termini – bu yuzaga kelgan vaqt urush oqibatida azob

chekayotgan shaxslarni himoya qilishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar to'plamidir. Shuning uchun "tinchlik huquqi" va "Inson huquqlari" o'rtasida sezilarli farq bor. Ushbu ibora ikki yoki undan ortiq tomonlar qo'llarida qurol bilan bir-biriga qarshi turar ekan, qonuniy tasnifidan qat'iy nazar, har qanday vaziyatni qamrab oladi.

"Qurolli to'qnashuvlar huquqi" tushunchasi adabiyotda turlicha nomlanadi. Jumladan, "Xalqaro tinchlik huquqi", "Urush huquqi", "Qurolli to'qnashuvlar paytida qo'llaniladigan tinchlik huquqi", "Qurolli to'qnashuvlar xalqaro huquqi" va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Jeneva Konvensiyalari matnlarida esa "Xalqaro gumanitar huquq" tushunchasi ishlatiladi<sup>2</sup>. Davlatlarning tinchlik borasidagi qarashlari qarama – qarshi bo'lgan jarayonda ham paydo bo'lishi mumkin. Darhaqiqat, biz butun dunyoning taraqqiy etgan davri emas, balki, qadim o'tmishiga ham nazar solishimiz lozimdir. Jumladan,. Miloddan avvalgi 1269-yilda Misr fir'avni va xettlar shohi o'rasida tuzilgan tinchlik va ittifoq to'g'risidagi protokolda nafaqat tashqi dushman bilan urushda, balki qo'zg'olon qilgan qullarni bostirishda ham yordam ko'rsatish nazarda tutilgan. O'sha davrdagi tamoyillarning shafqatsizligiga qaramay, to'plangan tajriba muhim ahamiyat kasb etdi. Asta-sekin ahdlashuv tushunchasi keng tarqaldi Qadimgi Hindistonning siyosiy hikmatlar to'plami, yarim afsonaviy Kautilyaning (mil. awal IV-III asrlar) qalamiga mansub Artxashastrida tinchlik ahdnomalari haqida shunday deyiladi: bu ahdnomalar teng yoki kuchliroq bo'lgan hukmdorlar bilan tuziladi, kuchsizlarga esa

<sup>1</sup> Краткий очерк международного гуманитарного права. 8 – бет.

<sup>2</sup> Ш. Убайдуллаев ва б. "Чакирувга кадар бошланғич тайёргарлик" .Т. "ILM-ZIYO" 2005 й. 156 бет.



hujum qilish kerak.<sup>3</sup> Yuqorida keltirilgan tarixiy ma'lumotga ko'ra tinchlik va ahdlashuv ya'ni bugungi kunda shartnoma, bitim kabi ma'noli so'zlar qo'llaniladi. Demak, tinchlik atamasi shakllanish binobarida ahdlashuv atamasi ham birgalikda shakllanib borgan. Masalan, urush harakatlari boshlanishi haqida nog'oralar ovozi, burg'u chalish, yoylardan otish va sabablar ko'rsatilgan bayonotlar orqali xabar qilish lozim edi. Pyollar, suxraylar va Burkina-Faso xalqlarida xotinqizlarga, bolalar va dehqonlarga hujum qilish taqiqlangan. Chunki «urushdan so'ng hayot davom etishi kerak, bo'lmasa dalalarga kim ishlov beradi?...». Masalan Keniyada jangchining ayol kishiga qo'l ko'tarishi sharmandalik hisoblanadi. G'arbiy Afrikaning ba'zi xalqlarida uchligi zaharlangan o'q-yoy va nayzalardan foydalanish taqiqlangan. Ibo elatida qabilalar o'rtasidagi ba'zi mojarolarda o'qotar qurollarni qo'llash man etilgan. Bu taqiqni buzganlik uchun qishloq oqsoqoli jazo berishi mumkin. Sharqiy Afrikada yashovchi bantularida shunday naql bor: «Ur, lekin o'ldirma!». Bunday misollarni davom ettirish mumkin... Albatta, bu o'gitlarga har doim ham rioya qilinavermagan, biroq nima bo'lsa ham, ular tinchlik taraqqiyotidagi ma'lum bosqichni tashkil etishini bilgan.

Umuman aytish mumkinki, deyarli barcha tizimlarda bir- biriga zid fikrlar mavjud: bir tomondan, ular insoniylikka to'g'ri kelmaydigan urush harakatlarini qoralaydi; ikkinchi tomondan esa, ba'zan urush olib borishning g'ayriinsoniy vositalari oqlanadi, Masalan, taniqli xristian teologi va cherkov arbobi Avgustin (354—

430) shunday yozadi: «Agar jang qilayotgan dushman halok bo'lishi lozim ekan, bu hol zarurat tufayli sodir bo'lsin, biroq sening ihtiyoring bilan emas... mag'lub bo'lgan yoki asir olingan kishi rahm qilinish huquqiga ega». Shu vaqtning o'zida, xristianlik tarixida, shubhasiz, atoqli bo'lgan bu shaxs «adolatli urush» doktrinasini ishlab chiqishga o'z hissasini qo'shgan.

Musulmon dunyosi ham «adolatli urush» tushunchasi bilan yaxshi tanish. Jumladan, Qur'oni Karimda ta'kidlab o'tilganki: «kimki biron jonni o'ldirmagan va yerda buzg'unchilik qilib yurmagan odamni o'ldirsa, demak, u go'yo barcha odamlarni o'ldiribdi va kimki unga hayot ato etsa (ya'ni o'ldirishdan bosh tortsa), demak, u go'yo barcha odamlarga hayot beribdi» (Moida surasi 32-oyat).<sup>4</sup>

Mazkur oyatda Islomning tinchliksevarligi ko'zga tashlanadi. Ya'ni bir kishini nohaq o'ldirish butun jamiyatni o'ldirish, bir kishini halokatdan saqlab qolish esa butun jamiyatni asrab qolishdir, deb ta'kidlanadi.

Hatto urush ostida bo'lgan va dushman zaminlarida yashagan, lekin jangovorlik sifatiga ega bo'lmagan insonlarning o'ldirilishiga ruxsat berilmaydigan Islom dini aksariyat xalqi musulmon bo'lgan o'lkalarda begunoh insonlar o'ldirilayotgan, nishonga olinayotgan xujumlarga shar'an ruxsat ko'zi bilan qarashi mumkin emasdir. «Niso» surasining 93 oyatida bir mo'min kishini qasddan o'ldirganlar jahannam azobiga duchor bo'lishi habar berilgan. Va yana Islom dinining muqaddas kitobiga nazar tashlaydigan bo'lsak, (Niso surasi 92 oyat) «Mo'min mo'minni o'ldirmas. Magar

<sup>3</sup> Убайдуллаев Ш. ва б. «Чакирувга қадар бошланғич тайёргарлик». – Т.: «ILM-ZIYO» 2005 йил, 156 -158 бетлар.

<sup>4</sup> [WWW.azon.uz/content/views/islom](http://WWW.azon.uz/content/views/islom). Саид-Абдулазиз Юсупов нутқи 2017 йил.



bilmasdan qilishi mumkin. Kimki mo‘minni bilmasdan o‘ldirib qo‘ysa, bas, unga mo‘min qulni ozod qilish va (o‘lganning) axli kechirsalar, xun berish vojib bo‘lur. Agar u so‘z bilan axdnomasi bor qavmdan bo‘lsa, axliga beriladigan xun va mo‘min qulni ozod qilish vojib bo‘lur”<sup>5</sup> deb ta’kidlanadi. Tinchlik bu biror bir qarama qarshi kuchning bartaraf etilishiga qaratilgan bo‘lishi lozimdir. Nihoyat, J.J. Russo (1712—1778) 1762-yilda o‘zining «Ijtimoiy protokol» asarida shunday yozadi: «Urush — bu odamlar o‘rtasidagi emas, balki davlatlar o‘rtasidagi munosabatdir. Odamlar bir-birlari bilan tasodifan, odam zoti va hatto fuqaroligi uchun emas, balki askarligi, ya’ni o‘z mamlakatining fuqarosi emas, balki himoyachisi ekanligi uchun dushman bo‘lib qoladi... Agar urushdan maqsad dushman davlatini yakson qilish bo‘lsa, unda toki o‘sha davlatning himoyachilari qo‘lida qurol tutib turar ekan, ikkinchi tomon ularni qirishga haqli. Biroq himoyachilar qurolini tashlab, taslim bo‘lgan zahotiy oq dushman yoki dushman qo‘lidagi vosita bo‘lishdan to‘xtaydilar va yana oddiy odamga aylanadilar, ularning jonini olishga esa hech kimga ruxsat etilmagan»<sup>6</sup> O‘z-o‘zidan ma‘lumki, bunday ahvolga jamiyat befarq munosabatda bo‘lib qolavermagan. Biroq, unga javoban

harakatlar boshlanishiga, nihoyat, XIX asr o‘rtasidagina turtki berildi. Shunday qilib, tinchlik o‘rnatish bu jamiyatning bir biriga bo‘lgan manfaatlar notengligiga qurolli mojarolarning huquq va majburiyatlari mustahkam xalqaro huquq asosga ega qilib belgilanishi lozim.

Xulosa tarizda keltiradigan bo‘lsak tinchlik atamasi paydo bo‘lishi va uning bugungi kungacha ahamiyatlik darajasiga nazar soladigan bo‘lsak, tinchlik atamasi inson paydo bo‘libdiki shakillanib boshlangan. Negaki, insoniyat ibtidoiy jamoa bo‘lib yashagandan boshlab ularning bir jamoa bo‘lib yashashlari uchun tinchlik va birdamlik tushunchasi shakillanishi lozim bo‘lgan. Demak, bir jamoaning tinchligini saqlash uchun o‘zlariga qabila boshliqlarini tayinlashgan va natijada tinchlik saqlangan. Yuqorida keltirib o‘tganimizdek biror bir zo‘ravinlik, xunrezlik, urush va konfliktlarning shakillanishida ikki yoki undan ortiq kuchlarning qarama – qarshi turishi va nizolarning paydo bo‘lish bosqichida insoniylik tushunchalarining shakillanishi bu tinchlik tushunchasining tom ma‘noda shakillanishidir O‘z – o‘zidan ma‘lumki har bir osoyishta jarayon uchun tinchlik o‘rnatishi lozimdir.

## References:

1. Краткий очерк международного гуманитарного права. 8 – бет.
2. Ш. Убайдуллаев ва б. “Чақирувга қадар бошланғич тайёргарлик” .Т. “ILM-ZIYO” 2005 й. 156 бет.
3. WWW.azon.uz/content/views/islom. Саид-Абдулазиз Юсупов нутқи 2017 йил.
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Қуръони Карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. –Т.:2009 – йил, Нисо сураси. 92-оят.

<sup>5</sup> Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Қуръони Карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. –Т.:2009 – йил, Нисо сураси. 92-оят.

<sup>6</sup> Ж.Пикте “Развитие и принципы международного гуманитарного права”. М., МККК 1994, стр 34 .